



"SEREBRAL FALAJ SABABLARI VA REABILITATSIYA JARAYONLARI"

*Ibragimova Durdona Dilmurod qizi Alfraganis Nodavlat Universiteti
Maxsus pedagogika fakulteti 1-bosqich talabasi*

*Utbasarova Umida Alfraganus Nodavlat Universiteti Pedagogika fakulteti
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya:

Mazkur mavzuda bolalar serebral falaji (BSF)ning sabablari, belgilari va oqibatlari yoritilgan. Kasallik bosh miyaning harakat zonalarining erta zararlanishi bilan bog'liq bo'lib, bolalarda harakat, nutq va rivojlanishning kechikishiga olib keladi. Tajriba davomida BSFni erta aniqlash va reabilitatsiya muhimligi, bu bolalarning kelajagi uchun hal qiluvchi omil ekani xulosa qilindi.

Kalit so'zlar:

Serebral falaji, markaziy nerv tizmi, harakat nuqsoni, nutq rivojlanishi, reabilitatsiya, psixojismoniy rivojlanish, tibbiy pedagogik yordam, bolalarda nogironlik.

Аннотация:

Причины, симптомы и последствия детского церебрального паралича (ДЦП) В данной статье рассматриваются причины, симптомы и последствия детского церебрального паралича (ДЦП). Заболевание связано с ранним повреждением моторных зон головного мозга, что приводит к задержке движения, речи и развития у детей. В ходе исследования был сделан вывод о



важности ранней диагностики и реабилитации ДЦП, что является решающим фактором для будущего этих детей.

Ключевые слова:

Церебральный паралич, центральная нервная система, двигательные нарушения, развитие речи, реабилитация, психофизическое развитие, медико-педагогическая помощь, инвалидность у детей.

Abstract:

This topic highlights the causes, symptoms, and consequences of cerebral palsy (CP). The condition is associated with early damage to the motor areas of the brain, leading to delayed movement, speech, and development in children. The experience concluded that early detection and rehabilitation of CP are crucial, as they are decisive factors for the future of these children.

Keywords:

Cerebral palsy, central nervous system, motor impairment, speech development, rehabilitation, psycho-physical development, medical-pedagogical assistance, disability in children.

Bolalar serebral falaji (BSF) -bosh miyaning harakat zonalari va harakatlarni o'tkazuvchi yo'llarining birlamchi jarohatlanishi bilan namoyon bo'luvchi markaziy nerv tizimi kasalligi.

Bolalar serebral falajida miyaning harakat va nutq harakat tizimlarining erta organik jarohatlanish kuzatiladi.

Ushbu nuqsonlarning sababli turli-tuman b'lishi mumkin. Infeksion kasalliklar, ayniqsa virusli infeksiya kasalliklar.



Homiladorlik davrida zaharlanish va turli xildagi jarohatlar;

Surunkali kasalliklar; ona va homilaning qon guruhi yoki rezus faktori bo'yicha o'zaro mos kelmasligi hamda boshqa sabablar;

Ba'zi holatlarda esa, masalan onaning tug'ruq vaqtida kamchiliklarga yo'l qo'yilishi natijasida kelib chiqaruvchi tug'ruq jarohat;

Homilaning o'z o'qiga o'ralib qolishi natijasida bolada kislorod yetishmasligining paydo bo'lishi va buning oqibatidagi bosh miya hujayralarning zararlanishi.

Serebral falajlangan bolalarning rivojlanishida psixo-jismoniy nuqsonlar birinchi navbatda harakat, sensor va nutqiy kamchiliklar bilan bog'liq.

Bolalar serebral falajiga ega bo'lgan bolalarda barcha harakat funksiyalarining shakllanishi orqada qoladi va kamchiliklar bilan shakllanadi.

Bolalarning boshinitutishi,

o'tirish, turish, buyumlar bilan harakatlarni amalga oshirish malakalari katta qiyinchilik bilan va juda kech rivojlanish.

Harakat tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar serebral falaji, poliomieliit, shol kasalligi asorati, harakat-tayanch a'zolarining turli tug'ma va orttirilgan deformatsiyasi-artrogripoz, oyoq qo'llarning majruhligi, axondroplaziya yoki xondrodistrofiya-tana, bo'yin, boshning normal rivojlanishi bir paytida tug'ma oyoq-qo'l suyaklari o'sishining orqada qolishi, miopatiya-mushak to'qimalarida modda almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan irsiy kasallikda mushaklar yaxshi qisqarmaydi, kishi qo'l-oyoqni harakatga keltira olmaydi.

Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalarning ko'pchiligida miya falaji kuzatiladi.



Serebral falajining dastlabki belgilari:

Bola tanasining qotib qolgan yoki bo'shashgan bo'lishi tug'ilishi bilan ko'zga tashlanishi mumkin.

Ammo hamma vaqt ham buni sezishga imkon bo'lmaydi.

Xulosa:

Tajriba davomida shuni tushundikki, bu kasallikni erta aniqlash va vaqtida reabilitatsiya qilish bolalarning kelajagi uchun juda muhim. Har bir bola sog'lom ulg'ayishi uchun biz – jamiyat, ota-ona va tibbiyot xodimlari birgalikda mas'ulmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.S. Tulaganov, Z.X. Jo'rayev – Bola nevrologiyasi asoslari, T.: "Tibbiyot", 2019.
2. D.R. Yunusxo'jayeva – Maxsus pedagogika va defektologiya, T.: "Fan va texnologiya", 2020.
3. Karimova M. – Tibbiyot psixologiyasi, T.: "O'qituvchi", 2018.
4. To'xtayeva L.S. – Bola psixonevrologik kasalliklari, T.: 2017.
5. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) materiallari – Cerebral Palsy: Key Facts, www.who.int